



GENDER FEATURES DENOTING MASCULINITY IN ENGLISH PHRASEOLOGY

Mukhamadiev Shakhlo Alijanovna

English teacher at S.H.Sirojiddinov Academic Lyceum specialized in
"Natural and Exact Sciences"

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14697756>

ARTICLE INFO

Received: 14th January 2025

Accepted: 19th January 2025

Online: 20th January 2025

KEYWORDS

English language phraseology,
grammar, gender, social,
cultural attitude.

ABSTRACT

Previous work has noted the history of English language and the needs of using phraseological units. In addition, the notion gender is also highlighted in the article. The article discusses the social status of man and how it influenced to the language. It explains that Stereotypes played a great role of creating some phraseological units denoting man. The investigation of popular imaginations about men gives an example "bring home the bacon" which represents the role of men in social sphere.

ГЕНДЕРНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ, ОБОЗНАЧАЮЩИЕ МУЖСКОЙ ПОЛ В АНГЛИЙСКОЙ ФРАЗЕОЛОГИИ

Мухаммадиева Шахло Алижановна

Преподаватель английского языка республиканского академического лицея,
специализирующийся на естественных и точных науках имени С.Х.Сирождидинова

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14697756>

ARTICLE INFO

Received: 14th January 2025

Accepted: 19th January 2025

Online: 20th January 2025

KEYWORDS

Фразеология английского
языка, целостное значение,
грамматика,
грамматическая категория,
гендер, социальные и
культурные отношения.

ABSTRACT

В данной статье представлены сведения о истории английского языка, его фразеологизмах, научном обосновании термина "гендер" и влиянии мужского рода на язык. Рассматривается, как влияние мужчин в жизни отразилось на языке, в частности на появлении таких выражений, как "Big Daddy", "take one's hat", а также анализируются лексическая основа этих фраз, их содержание и особенности. В статье также проводится анализ лексических и семантических аспектов фразеологических единиц английского языка и высказывается субъективное отношение к ним.

INGLIZ TILI FRAZELOGIYASIDA ERKAK JINSINI ANGLATUVCHI GENDERLIK XUSUSIYATLARI

Muxammadiyeva Shaxlo Alijanovna

"Tabiiy va aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan S.H.Sirojiddinov nomidagi respublika akademik
litseyi ingliz tili o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14697756>



ARTICLE INFO

Received: 14th January 2025

Accepted: 19th January 2025

Online: 20th January 2025

KEYWORDS

Ingliz tili frazeologiyasi, yaxlit bir ma'no, grammatika, grammatik kategoriya, gender, ijtimoiy, madaniy munosabat.

ABSTRACT

Mazkur maqolada ingliz tili tarixi, frazeologizmlari, gender so'zining ilmiy asoslanishi va erkak jinsining tilga qilgan ta'siri haqida ma'lumotlar berilgan. Erkak jinsi vakillarining hayotdagi o'rni tilga ta'sir qilib unda "Big Daddy", "take one's hat" kabi iboralarining paydo bo'lganligi, mazkur iboralarining lug'aviy asosi, mazmun-mohiyati yuzasidan va o'ziga xos jihatlari yuzasidan maqolada izoh berilgan; ingliz tili frazeologiyasida frazeologik birliklarning leksik va semantik tomonlari tahlil qilingan hamda subyektiv munosabat bildirilgan.

Kirish. Frazeologiya - bu tilning muhim bir qismi bo'lib, u tilda ishlatiladigan idiomalar, iboralar va amaliy shakllarning to'plamini bildirish uchun ishlatiladi. Frazeologizmlar, ko'pincha, mafkura, ijtimoiy hayot va madaniyatning aks etgan shakli sifatida qaraladi. Tilning frazeologik ta'riflari orqali insonning hayotga bo'lgan qarashlari, yagona ijtimoiy rollar, hamda genderlik, ya'ni jinslarga nisbatan belgilangan stereotiplar va ijtimoiy talablar namoyon bo'ladi.

Gender tadqiqotlari – zamonaviy gumanitar fanlarning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib, unda jamiyatning erkaklar va ayollarga nisbatan munosabati, ularning jinsga oid xatti-harakatlari, jinsiy identifikatsiyaga asoslangan stereotipik tasavvurlar, ya'ni jins masalasi biologiya sohasidan ijtimoiy hayot va madaniyat sohasiga qanday ko'chirilishi ko'rib chiqiladi. "Erkaklik" va "ayollik" tushunchalari, shunday qilib, faqat tabiiy omil sifatida emas, balki madaniyat konsepsiyalari sifatida qaraladi [4].

Bu maqolada ingliz tilida erkak jinsini anglatuvchi frazeologizmlar, ularning xususiyatlari va jamiyatdagi o'zgarishlar bilan bog'liq nazariy va amaliy jihatlar o'rganiladi. Erkak jinsini anglatuvchi frazeologizmlar ko'pincha madaniy va ijtimoiy konstruksiyalarni o'zida aks ettiradi, bu esa tilning o'zgaruvchan va dinamik tabiatiga ishora qilishi mumkin. Til va madaniyat o'rtasidagi bunday bog'liqliklar, o'z navbatida, genderlik rollarning ijtimoiy tasviriga taalluqli bo'ladi. Maqsadi, ingliz tili frazeologiyasining erkaklar bilan bog'liq jihatlari aniqlash, ularning mazmunlari va o'sha frazeologizmlar orqali jamiyatdagi erkaklarga ko'rsatilgan ijtimoiy rollarni izohlashdan iboratdir.

Dunyoning turli tillarida shaxsni tavsiflovchi frazeologik birliklar juda katta hajmni egallaydi. Bunday frazeologizmlarni turli belgilariga ko'ra tasniflash mumkin. Bunda grammatik, leksik-semantik, etnolingvistik, lingvomadaniy va boshqa belgilar tasniflovchi xususiyat sifatida xizmat qilishi mumkin. Til va madaniyatni o'rganish haqida gapirganda, bu muammoni o'rganishning ajralmasligini ta'kidlash kerak. Tilda aks ettirilgan madaniy xususiyatlarni o'rganish bu tilda so'zlashuvchi xalqlarning dunyoqarashini, ularning obrazlar tizimini, stereotiplar majmuini tushunishga yaqinlashish imkonini beradi. Shu bilan birga, dunyo va insonning tilda qanday aks etishi ham alohida qiziqish uyg'otadi.

Erkak jinsiga xos bo'lgan alohida frazeologik birliklar ham muhim ahamiyatga ega. Gender frazeologik birliklarining semantik tasniflovchi xususiyatlari, inson (erkak)ning qanday fazilatlarini frazeologik birliklarda aks etishini, taqqoslanayotgan tillarda bu



belgilarning qanday to'plami mavjudligini, erkaklar va ayollar tomonidan qaysi frazeologizmlar ko'proq ishlatilishini, gender boshqa belgilar bilan qanday kesishishini, agar kesishsa, u qanday belgilarga taalluqli ekanini va hokazolarni aniqlashga qaratilgan.

Ingliz tili frazeologiyasida genderlik xususiyatlar juda katta ahamiyatga ega. Bu haqda so'z yuritganda, erkak va ayol jinsini tasvirlaydigan iboralar, ularning frazeologik ta'riflari va ularning turli til va madaniyatlardagi xususan tilshunoslik muammolari muhim ahamiyatga ega. Ayni paytda, frazeologiya va genderning o'zaro bog'liqligi tilning ijtimoiy va madaniy kontekstiga asoslanib, erkaklar, ayollar va ularning ijtimoiy rollari haqidagi konsepsiyalarni shakllantiradi.

Ingliz tilida erkak jinsiga xos bo'lgan frazalarni topish bizga erkak kishining tilda tutgan o'rni va yoki tilga qaysi taraflardan ta'sir qilishini o'rganishga imkon berishi bilan dolzarblik kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida erkaklarning xarakterini, harakatlarini va xulq-atvorini, shuningdek, ularning tashqi va ichki sifatlarini shakllantiruvchi eng muhim va asosiy sifatlar, belgilari va xususiyatlarini ajratib ko'rish mumkin. Bu sifatlar va belgilar, til egalarining ongida, erkaklar xususiyatini eng ko'p ifodalovchi va ta'riflovchi omillar sifatida namoyon bo'ladi. Tabiiyki, bunda frazeologik birliklar, ingliz tilidagi frazeologik obrazga mos keladigan, tavsiflanayotgan xususiyatlarga asoslangan tarzda tanlanadi. Frazeologik birliklarning ma'lum semantik guruhlarining produktivligi (miqdoriy tarkibi) o'sha yoki bu xususiyatlarning til egalarida qanchalik dolzarbligiga bog'liq.

Ingliz tili bir necha ming yillik tarixga ega bolib, ana shu yillar mobaynida insonlar tomonidan ma'noni chiroyli ifoda etadigan katta hajmdagi so'z va iboralar yig'ila bordi [4]. Keyinchalik bu so'z va iboralar yaxlit bir ma'noni ifodalovchi frazeologizmlarga aylanib, hozirgi vaqtga qadar frazeologiya sohasida juda ko'p ishlar, tadqiqotlar amalga oshirildi. Ayni vaqtda olimlar va tadqiqotchilarning asosiy e'tibori frazeologiyada gender masalasiga qaratilgan. Avvalo "gender" so'ziga to'xtalib o'tsak.

"Gender" so'zi bir necha yillar oldin asosan ilmning grammatika sohasida "grammatik kategoriya"ni ifodalashda (*shye, hye*) qo'llanilgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib u turli sohalarda turlicha ma'no kasb etib kelmoqda. Lekin uning markazida avvalo jamiyatning erkak va ayolga bo'lgan ijtimoiy va madaniy munosabati, u yoki bu jins vakillarining xulq atvori, erkak yoki ayol xususiyatlarini ifodalovchi steriotiplar turadi. Ya'ni mana shu faktorlarning barchasi jinsni hayotning ijtimoiy yoki madaniy sohasiga yo'naltiradi.

Gender frazeologiya sohasida ham o'z o'rnini topib, jinslar orasidagi munosabatlarni ifoda etishda unumli foydalanilmoqda. Shunga ko'ra, ba'zi bir frazeologik birliklar xulq atvor va steriotiplarga xos xususiyatlariga ko'ra erkak jinsiga nisbatan ishlatiladi. Misol uchun ingliz tilida keltirilgan "*bring home the bacon*" [2] frazeologik birligi asosan erkaklarga nisbatan ishlatilgan.

Bundan tashqari, ingliz tilida "*take one's hat*" [2] iborasi asosan erkaklarga nisbatan ishlatilib, biror bir mansabdan ketish ma'nolarini ifodalagan. Bu iboraning erkaklarga nisbatan ishlatilishi bejiz emas. Oldingi davrda erkaklarning shlyapalar kiyishi urf bo'lgan va ular shlyapalarini boshlaridan olib xayrlashganlar. Shu shu iboraning eski ma'nosi yangi, ya'ni



“biror bir mansabdan ketish” ma’nosiga o’zgardi. Yoki “*Big Daddy*” [2] iborasi asosan erkaklarga nisbatan ishlatilib, qizini himoya qiluvchi, g’amxo’r otani ifodalagan.

Natijalar. Frazeologiya va genderning o’zaro bog’liqligi til va ijtimoiy hayotning chuqur o’zaro aloqasini ko’rsatadi. Bizning kundalik hayotimizda qo’llaniladigan frazeologizmlar, tilning ijtimoiy, madaniy, ta’lim va madaniyatga aloqador katta kontekstida shakllanadi. Bunday iboralar, ko’pincha, odamlarning ijtimoiy rollari va ularning jinsga bo’lgan munosabatini ko’rsatadi. Mazkur ma’noda, genderlik - bu insonlarning ijtimoiy, psixologik va biologik xususiyatlaridan kelib chiqib, jamiyatdagi turli vazifalarni, ya’ni erkak yoki ayol bo’lishning taqozo va talablarini belgilaydi.

Jins va frazeologiya o’rtasidagi aloqa shundan iboratki, frazeologizmlar jihatidan erkaklik yoki ayollik holati ko’pincha jamiyatdagi tartiblar, madaniy an’analar va ijtimoiy rollar bilan bog’liq bo’ladi. Frazeologizmlar, o’z navbatida, bu ijtimoiy o’rnini namoyon qiluvchi va belgilab qo’yuvchi vositadir.

Ingliz tilida erkaklarning ijtimoiy rollari, ularning psixologik va jismoniy xususiyatlari haqida keng tarqalgan bir qator frazeologizmlar mavjud. Ular, odatda, erkakning jamiyatdagi imidji va unga qo’yiladigan talablar bilan bog’liq bo’lib, erkakning xatti-harakatlariga, psixologiyasiga va uning ijtimoiy pozitsiyasini ko’rsatadi. Bir necha qo’llaniladigan iboralarga nazar tashlaymiz:

Ingliz tilida erkaklarga oid frazeologizmlar keng tarqalgan. Ularda erkaklarning fizik, ijtimoiy va psixo-emotsional xususiyatlari bilan bog’liq bir qator qiyoslar, stereotiplar va madaniy simvollar mavjud [9]. Masalan:

- “Man up” - bu ibora erkakni qat’iy bo’lishga, og’ir vaziyatlarda ham kuchli va sabrli bo’lishga chaqirish uchun ishlatiladi. Bu, o’z navbatida, erkaklarga qarata qo’yiladigan ijtimoiy talablarning bir namoyoni hisoblanadi [8].

- “The man of the house” - bu ibora erkak kishining oiladagi asosiy qaror qabul qiluvchi, mustahkam va avtoritetli shaxsni anglatish uchun ishlatiladi [6].

- “He’s a real man” - bu fraza odatda erkakning o’ziga xos, musbat xususiyatlarini tasvirlashda ishlatiladi [10].

Frazeologiya va genderning o’zaro bog’liqligi til va ijtimoiy hayotning chuqur o’zaro aloqasini ko’rsatadi. Bizning kundalik hayotimizda qo’llaniladigan frazeologizmlar, tilning ijtimoiy, madaniy, ta’lim va madaniyatga aloqador katta kontekstida shakllanadi [9]. Bunday iboralar, ko’pincha, odamlarning ijtimoiy rollari va ularning jinsga bo’lgan munosabatini ko’rsatadi. Mazkur ma’noda, genderlik - bu insonlarning ijtimoiy, psixologik va biologik xususiyatlaridan kelib chiqib, jamiyatdagi turli vazifalarni, ya’ni erkak yoki ayol bo’lishning taqozo va talablarini belgilaydi [7].

Shu bilan birga ta’kidlash lozimki, ingliz tilidagi erkaklarga oid frazeologizmlar jamiyatdagi an’anaviy va yangicha genderlik rollarini ko’rsatishda muhim ahamiyatga ega. Frazeologizmlar va ularning ishlatiladigan konteksti, jinsga bo’lgan ijtimoiy talablar va stereotiplarni shakllantiradi. Mazkur frazeologizmlar orqali jamiyatdagi erkaklarga va ayollarga bo’lgan munosabatlar hamda ularning ijtimoiy javobgarligi aniq bog’lanadi.

Jamiyatda erkaklardan talab qilingan ijtimoiy va psixologik xislatlar orasida qat’iyatlilik, jasorat, mustahkamlik va mas’uliyat bor. “*Man up*” [2] frazasi, masalan, erkakni qiyinchiliklar bilan kurashishga chaqirish orqali erkaklarga qo’yiladigan talabni ko’rsatadi. Bundan tashqari,



"The man of the house" [2] frazasi oiladagi rahbarlik rolga ishora qiladi va erkaklardan mustahkamlik va oilaviy mas'uliyat talab qilishni nazarda tutadi.

Shu bilan birga, frazeologizmlar bilan ishlashda, zamonaviy jamiyatdagi yangi genderlik konsepsiyalariga ham e'tibor berish kerak. Buning uchun, erkaklarga nisbatan mavjud frazeologizmlarning yangi sharhlari, odamlarning genderga bo'lgan qarashlarining o'zgarishini ko'rsatadi. Yangi avlod frazeologizmlarida erkaklarning muloyimlik, egalik va bo'lishish haqidagi hissiyotlarini ko'rsatishga intiladi.

Muhokama. Frazeologiya va gender o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, til va ijtimoiy hayotning chuqur o'zaro aloqasini ko'rsatadi. Har bir jamiyatda til orqali erkaklar va ayollar uchun belgilangan rollar, ularning xulq-atvori va shaxsiy fazilatlariga nisbatan aniq talablar mavjud. Bu talablar, til orqali shakllanadigan frazeologik birliklar orqali yoritiladi. Erkaklarga oid frazeologizmlar jamiyatda erkaklik obrazini yaratishda va uni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Ular, asosan, erkaklarga qo'yilgan ijtimoiy talablarni, yuksak moral va psixologik sifatlarni ifodalashda ishlatiladi.

Matnda keltirilgan frazeologizmlar, masalan, *"Man up"* (qat'iy bo'lish) [2] va *"The man of the house"* (oiladagi rahbar) [2], erkaklarning jamiyatdagi o'ziga xos rollarini va ularga bo'lgan talablarni ko'rsatib beradi. Birinchisi erkakning mustahkam bo'lishini, qiyinchiliklarga qarshi turishini ta'kidlaydi, ikkinchisi esa oiladagi rahbarlik rolini ifoda etadi. Bu frazeologizmlar jamiyatda erkaklar uchun belgilangan ijtimoiy vazifalarni aks ettiradi: kuchli, qat'iyatli va mas'uliyatli bo'lish. Bunda erkaklardan shaxsiy quvvat va ichki kuch talab etiladi. Ushbu frazeologik birliklar erkaklar uchun an'anaviy va keng tarqalgan talablarni ifodalaydi.

Shu bilan birga, jamiyatdagi erkaklarga nisbatan stereotipik tasvirlar vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin. Misol uchun, *"He's a real man"* (u haqiqiy erkak) [2] frazasi odatda jasorat, qat'iyatlilik va oilaviy mas'uliyatni ta'kidlaydi. Biroq, zamonaviy jamiyatda erkaklikning yangi tasvirlari va ularga qo'yilayotgan talablar o'zgarayotganini ko'rish mumkin. Bugungi kunda, *"Macho man"* [2] kabi frazeologizmlar ko'proq erkaklarning jismoniy kuchi va mushaklari bilan bog'liq bo'lsada, yangi avlod tomonidan erkaklar orasidagi ijtimoiy jihatdan barqaror va hurmatga sazovor sifatlar ham qadrlanmoqda. Ya'ni, hozirgi davrda erkaklardan faqat jismoniy kuch emas, balki hissiy intellektual kuch, hamkorlik va egalik kabi sifatlar ham kutilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, frazeologizmlarning jamiyatdagi gender rollari bilan qanday bog'langanligini tahlil qilish jamiyatdagi qadriyatlar va stereotiplarga qanday ta'sir qilishini tushunish uchun muhimdir [3]. Gender va frazeologiya o'rtasidagi bog'liqlik, ayniqsa, tilning ijtimoiy kontekstda qanday ishlatilishini tushunishda muhim rol o'ynaydi. Frazeologizmlar o'z navbatida, bir vaqtning o'zida erkak va ayol jinsining jamiyatdagi o'rni va rolini aniqlovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Bu, o'z navbatida, jinsga oid stereotiplarga qarshi kurashishda yoki yangicha gender tasavvurlarini shakllantirishda yordam berishi mumkin.

Zamonaviy jamiyatda erkaklik va ayollik o'rtasidagi an'anaviy farqlar kamayib bormoqda. Yangi avlod frazeologizmlarida erkaklar faqat mushak kuchi yoki qat'iyatlik bilan emas, balki muloyimlik, mas'uliyat va boshqalar bilan ham tasvirlanadi [5]. Erkaklikning bu yangicha talqinlari, albatta, ijtimoiy munosabatlarni va genderga oid qarashlarni yangilashga xizmat qiladi.



Umuman olganda, frazeologizm va gender o'rtasidagi aloqani tahlil qilish jamiyatdagi jinslararo tenglikni, an'anaviy ijtimoiy rollarning o'zgarishini va yangi talablarni tushunishga yordam beradi. Bu, shuningdek, frazeologizm orqali jamiyatda erkak va ayollarga bo'lgan munosabatlarning qanday shakllanishi va rivojlanishini ko'rsatadi.

Xulosa. Ingliz tilidagi erkak jinsini anglatuvchi frazeologizmlar jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va genderlik stereotiplarni, erkaklarga qo'yiladigan talablar va ijtimoiy rollarni aniq ko'rsatadi. Ushbu frazeologizmlar tilning ijtimoiy kontekstiga asoslanib, ijtimoiy o'rganishlarni va madaniy to'qnashuvlarni namoyon etadi. Frazeologiya orqali insonlar orasidagi genderlik rollar, yangicha va an'anaviy tarzda shakllanadigan ijtimoiy tasvirlar shakllanadi.

Shu bilan birga, ingliz tilidagi erkak jinsini anglatuvchi frazeologizmlarni o'rganish, tilshunoslik sohasidagi izlanishlar uchun yangi yondoshuvlarni va ijtimoiy hayotga taalluqli tahlillarni olib borishga yo'l ochadi.

References:

1. Актуальные проблемы фразеологии. Материалы Республиканской научно-теоретической конференции. - Отв. ред. - А.М. Бушуй. -Самарканд: СамГУ, 1995.
2. Алехина А.И. Краткий русско-английский и англо-русский фразеологический словарь. -Минск: Изд-во БГУ, 1980.
3. Антрушина Г.Б., Афанасьева О.В., Морозова Н.П. Лексикология английского языка: Учеб. пособие для студентов. -М., Дрофа, 1999.
4. Кирилина А.В. Тендер: лингвистические аспекты. -М.: Институт социологии РАН, 1999. -189 с.
5. Кунун А.В. Курс фразеологии современного английского языка. -М: Высшая школа, Дубна: Издательский центр "Феникс", 1996.-381 с.
6. Baxromov F. Til va madaniyat: frazeologik birliklar va ularning ijtimoiy konteksti. - Samarqand: Falsafa va adabiyot nashri. 2019.
7. Brown P. & Levinson, S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. -Cambridge: Cambridge University Press. 1987.
8. Davis K. & Fox R. The Social Dynamics of Language: The Role of Idioms in Gendered Communication. -Cambridge: Cambridge University Press. 2017.
9. Shuxratov M. Gender va frazeologiya: erkaklik va ayollik obrazining tilda ifodalanishi. - Toshkent: Universitet nashr. 2021.
10. Wells J. Language and Gender: The Interaction of Words and Social Identity. -Oxford: Oxford University Press. 2015.